

YOSHLARNI TARBIYALASHDA MILLIY-MA'NAVIY QADRIYATLAR TIZIMI

Palimbetova Jayxun Qutlimuratovna

Nukus Davlat Pedagogika Instituti, Magitsratura bo`limi,
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistranti

Xalmenova Xalida Polatovna

Nukus shaxar 21-maktab o`qituvshisi

Summary: This article discusses issues of national values, its role in the education of the younger generation and children, his role in our lives.

Keywords: Upbringing, student, youth, national values, history, function, educational institution, future, factor

Tayanch so`zlar: Tarbiya, o`quvchi, yoshlar, milliy qadriyatlar, tizim, tarix, vazifa, o`quv muassasalari, kelajak, omil

Ключевые слова: воспитание, ученик, молодежь, национальные ценности, история, функция, учебное заведение, будущее, фактор

Rezyume: Ushbu maqolada yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda va tarbiyalashda milliy qadriyatlarning ahamiyati, ularning hayotimizdagi o`rnini xaqida so`z qilinadi.

Резюме: В данной статье рассматриваются вопросы о национальных ценностях, его роль в воспитании подрастающего поколения и детей, его роль в нашей жизни.

Mustaqillikning dastlabki yillardanoq ajdodlarimiz tomonidan ko`p asrlar davomida yaratilgan beba ho ma`naviy, madaniy merosimiz davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri bo`lib kelmoqda.

Turli xalqlar va millatlar hayotiga islomiy qadriyatlar kirib borganida dastlab qarshilikka uchragan. Islom dini o`zining insonparvarlikka asoslangan qadriyatları tizimini tavsiya qilar ekan, murosa va kelishuv yo`lidan borgan.

Bugungi zamonaviy qadriyatshunoslik fanida milliy qadriyatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadi. Rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo`ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o`ziga xos tarzda ta`sir qiladi, deyiladi. SHuningdek, milliy qadriyatlarni kishilarning o`zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko`zga tashlanib turishidan hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma`naviy asosdan bilib olsa bo`ladi.

Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo`lgan barcha narsalarga qadriyatlar deyiladi. Qadriyatlar - narsa va voqealar, jamiyat, moddiy va ma`naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo`llanadigan tushuncha.

Har bir fanga o`z nomini bergan asosiy tushunchalar bo`lgani kabi «qadriyat» tushunchasi ham «qadriyatshunoslik» atamasi uchun shunday asos bo`la oladi. Farbda bu atama yunoncha «axio» (qadriyat) va «Logos» (fan, ta`limot) tushunchalaridan tashkil topgan. Qadriyat va qadriyatlar milliy g`oyaning muhim kategoriyalardan biri, bo`lib, qadriyatlar axloqiy qoida va me`yorlar, ideallar va maqsadlardagi baholash mezoni va usullarini ham o`zida aks ettiradi. Ular halollik, poklik, o`zaro yordam, adolatlilik, haqiqatgo`ylik, ezgulik, tinchlik, shaxs erkinligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar, burch, vijdon, or-nomus, mas`uliyat kabi axloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo`ladi. Qadriyat o`z tabiatiga ko`ra,

ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida u o`zgaradi va takomillashadi. SHuning uchun qadriyat to`g`risidagi ta`limotlar ham takomillashib, rivojlanib boradi.

Har bir xalqning o`zi uchun e`zozli, qimmatli bo`lgan ma`naviy boyliklari bo`ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o`tib kelgan, hozirgi kunda ham o`zining ahamiyati va qadrini yo`qotmagan, shu xalqning iftixon manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, o`zbeklarda «Alpomish», qirg`izlarda «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, francuzlar Parijdagi Luvr saroyi bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o`ziga xos tarixiy merosi, san`ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma`naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o`ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o`ynaydi.

Milliy-madaniy an`analarimiz, tarixiy taraqqiyot davomida erishgan va erishayotgan yutuqlarimizni asrab-avaylash, mustaqilligimizni mustahkamlash, yoshlар ongiga Vatanga, millatga hurmat ruhida tarbiyalash - bugungi kunda milliy g`oyani targ`ib qilishning eng asosiy maqsadlaridandir.

Hozirgi zamonda ilg`or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog`li yuksaklikka ko`tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tub o`zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg`unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog`lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Xalqning madaniy qadriyatлari, ma`naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma`naviyat manbai bo`lib xizmat qilgan. Uzoq yillar davomida totalitar tuzumga qaramay o`zbek xalqining madaniy qadriyatлari, an`analarini saqlanib qolindi.

Ma`naviy qadriyatлarning tiklanishi, milliy o`zlikni anglashi murakkab sharoitda - eski imperiya tuzumi barbob bo`lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi.

Jangari millatchilik, diniy murosasizlik va «o`zimniki» bo`lmagan hamma narsaga nafrat bilan qaraydi. SHu boisdan bularni har tomonlama hisobga olgan holda ma`naviy tiklanishning ijobiy, buniyodkorlik, bir - birini to`ldiradigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy dasturlar ishlаб chiqish, amalga oshirishni zarur qilib qo`ydi.

Hozirgi vaqtida xavfsizlikni ta`mishlashni texnologik va texnokratik uslubiyot asosida tashkil etish-davr talabidir. Yoshlarning axborot xavfsizligini ta`minlash vazifasi, o`z navbatida jarayonni tizimlashni, natijani avvaldan kafolatlashni, jarayonga istalgai paytda tuzatishlar kiritish imkoniyati bo`lishini taqozo etadi.

Milliy ma`naviy qadriyatlar ko`p asrlik tarixga ega. O`zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yo urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo`lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko`rsatadi. Masalan, «Avesto» bundan 2700 yil muqaddam 12 ming mol terisiga oltin xarflar bilan bitilgan bu asar paydo bo`lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o`tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to`planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, hottotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o`z qimmatini yo`qotmadidi.

Davrlar o`tishi bilan milliy ma`naviy qadriyatlar ham o`zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me`yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi.

Pedagogik o`qitish texnologiyasi esa uni singdirishda muhim va asosiy dastak vazifasini bajaradi. Milliy g`oyaning asosiy tashuvchisi-yoshlар hisoblanadi. SHuni hisobga olganda, bugun yoshlarning ongiga millliy g`oya maqsadlarini singdirish, ularni an`analarimiz, tariximiz, umume`tirof etilgan demokratik tamoyillar ruhida tarbiyalash bugungi kunda milliy siyosatimizning asosiy yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Milliy g`oya targ`ibotining asosiy maqsadi-avvalo, jamiyat barcha a`zolari, shuningdek, yosh avlodni shu g`oyaga ishonch va e`tiqod asosida tarbiyalash, ularni turli “mafkuraviy xavflar” dan himoya qilish, davlat va jamiyat manfaatlarini doimo o`ziga ma`suliyat deb his qiladigan holatda tarbiyalash bugun alohida mazmun kasb etmoqda.

Milliy qadriyatlar - millat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, etnik jihat va xususiyatlar bilan bog`liq bo`lgan qadriyatlar shakllidir. Dunyoda o`ziga xos qadriyatlari bo`lmagan millat yo`q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma`naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog`liq holda namoyon bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda xalqimizning ma`naviy merosi, an`analari, urf-odatlari, adabiyoti, san`ati bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajada namoyon bo`lish shakllari islomiy qadriyatlар bilan bog`lanib ketgan. Ular millatimizning tarixiy rivojlanish jarayonida avloddan avlodga o`tib kelayotgan madaniy xususiyatlar va jihatlarda o`z aksini topadi.

Adabiyotlar:

1. Islom va milliy qadriyatlar. Abdus Somad Abdul Vosit Tojiddinov, Toshkent islom instituti talabasi Muslim.uz.04.11.2017
2. O`zbekiston Respublikasining Konstituciysi. -T. «O`zbekiston», 2003, 4-10-betlar.
3. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O`zbekiston», 1997. 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
4. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: «O`zbekiston», 2000. 6-12, 14-26, 28-38, 47-48-b.
5. Abdulla Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq». -T.: «SHarq» 1994. 39-52-betlar.
6. Azizzxo`jaev A.A. Davlatchilik va ma`naviyat. -T.: «SHarq», 1997. 19-41 betlar.
7. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, -T.: «O`zbekiston», 2001. 136-150-betlar.